MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sug‘urta faoliyatini nazariy tadqiq etadigan bo‘lsak, aholi farovonligini ta‘minlash va aholining ijtimoiy himoya qilish hamda takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta‘minlash maqsadida hamda tadbirkorlik nuqtai nazaridan tijorat korxonasi, ya‘ni daromad olishni nazarda tutuvchi faoliyat sifatida tahlil qilishimiz mumkin. Jahon iqtisodiyoti va milliy iqtisodiyotdagi o‘zgarishlar, milliy iqtisodiyotning raqamlashtirilishi sug‘urta bozoriga ham ta‘sir etmoqda, zamonaviy iqtisodiyotning ta‘siri ostida sug‘urta sohasiga talab ortib bormoqda. Sug‘urta bozorida tarkibiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, sug‘urta vositachilarining maqsad va vazifalari o‘zgarib bormoqda, sug‘urta tariflarini hisoblashda professional sug‘urta aktuariylari xizmatlaridan foydalanish yo‘lga qo‘yilmoqda, avariya komissarlari, adjaster va syurveyerlar faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda, assistans xizmatlari va boshqa sug‘urta sohasiga xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot va korxonalar soni ortib bormoqda. Ammo sug‘urta bozoridagi ba‘zi nomuvofiqliklar, masalan, agent va brokerlar sonidagi farqlar, aktuariylarning faoliyatini tartibga solish, hududiy nomutanosibliklar sug‘urta bozorini, avvalo, nazariy jihatdan tadqiq etish zarurligini ko‘rsatmoqda.

S. Scawthorn qayd qilishicha, sug‘urta sohasining rivojlanishini tadqiq qilish jarayonida tizimli yondashuv aksariyat hollarda qo‘llanilgan. Shunga qaramay, sug‘urta bozori infratuzilmasini o‘rganishda cheklangan resurslardan foydalaniladi, vaholanki, sug‘urta bozorini ham mego, mezo va mikrodarajada tahlil qilish taqozo etiladi.

Amerikalik olim Benjamin Friedman risk turlari bo‘yicha aktivlarni diversifikatsiya qilish, yuzaga keladigan risklarni sug‘urtalash va sug‘urtalovchilar o‘rtasida taqsimlash, ya‘ni qayta sug‘urtalash muammolarini ko‘rib chiqqan. Benjamin Friedman uni milliy iqtisodiyotdagi munosabatlar dinamikasi va uning infratuzilmasining turli ixtisoslashuvlaridan olinadigan foyda nuqtai nazaridan baholaydi. Milliy iqtisodiyot subyektlarining bir-biri bilan bog‘liqligini ta‘minlash maqsadida sug‘urta tashkilotlari, banklar va nobank institutlari moliyaviy vositachi sifatida xizmat qiladi. Sug‘urta tizimi, moliya bozori haqidagi institutsional nazariya, jamg‘armalarni sanoat sektoridagi muqobil foydalanuvchilar o‘rtasida resurslarni taqsimlovchi investitsiyalarga aylantirishni ta‘minlaydigan shartli institutsional kelishuvlar sifatida tizimlash nuqtai nazaridan ajratib ko‘rsatish kerak.

John Richard Hicks, J. Keynes, Arthur Cecil Pigou fundamental asarlarida shunday deyilgan: «moliya sektori tarkibiy qismlarining kontseptual jihatlarini investitsiya samaradorligining salbiy oqibatlari oldini olish, investitsion risklarni bartaraf etish va akkumulatsiya qilingan moliyaviy mablag‘larni takror ishlab chiqarish uzluksizligini ta‘minlash maqsadida moliyaviy resurslarni taqsimlash samaradorligi va zarurligi bilan belgilanadi».

Yu. T. Axvlediani sug‘urtani takror ishlab chiqarish jarayonida birlashgan ishtirokchilarning birdamligi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqadi. Uning fikriga ko‘ra, ishtirokchilar – sug‘urtalovchilar soni qancha ko‘p bo‘lsa, himoyaga ega bo‘lish ehtimoli shuncha ishonchli bo‘ladi. Bu nuqtai nazar har qanday sug‘urta institutiga, sug‘urta bozoriga, ayniqsa, jahon qayta sug‘urta bozoriga xos sanaladi.

Mahalliy olimlardan X. M. Shennayev fikricha, sug‘urta summasi har doim sug‘urta mukofotidan ko‘p bo‘lishi bilan asoslanadigan sug‘urta mahsulotining o‘ziga xos xususiyatini qayd qiladi. Bu nisbat sug‘urta mahsulotlarining bozor jozibadorligini va ularga bo‘lgan talabni tavsiflaydi. Sug‘urta hodisalari yuzaga kelishining ehtimoli tufayli sug‘urta xizmatini sotib olishning iqtisodiy mohiyati namoyon bo‘ladi.

Mamlakatimiz iqtisodchi zamondosh olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar sug‘urta bozorining rivojlanish indikatorlari tahlili, sug‘urta infratuzilmasi subyektlari faoliyatini takomillashtirish, sug‘urta klassifikatori bo‘yicha sug‘urta turlari doirasidagi tadqiqotlar bilan kifoyalanadi.


Raqamli transformatsiya va generatsiya qilish jarayonlari amalga oshirilayotgan bir paytda sug‘urta bozorining sifat va miqdor indikatorlarini rivojlantirish, yangi savdo maydonlarini tashkil qilish, mijozga yo‘naltirilgan sug‘urta mahsulotini joriy qilish, sug‘urta risklari tipologiyasini o‘zgartirish va innovatsion texnologik jarayonlarni sug‘urtada qo‘llash bo‘yicha fundamental metodologiyasi tor ma‘noda ko‘rib chiqilgan.

Bu esa ushbu mavzuni yanada tadqiq etish zarurligini, tadqiq qilingan muammolar va ularni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishning dolzarbligini anglatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda sug'urta bozori rivojlanish tendensiyasiga ega, yildan-yilga O'zbekiston sug'urta bozorida yangi ishtirokchilar paydo bo'lmoqda, sug'urta mukofotlari hajmi, sug'urta to'lovlari va sug'urta shartnomalarining soni ortib bormoqda. Sug'urta bozori rivojlanish indikatorlarining natijasi sug'urta mukofotlarining YAIMdagi ulushi va sug'urta mukofotlari hajmining aholi jon boshiga to'g'ri kelishi hisoblanadi.

Суғурта мукофотининг ЯИМдаги улуши (фоизда)




Аҳоли жон бошига тўғри келадиган суғурта мукофоти (АҚШ доллари)

1-rasm. Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta faoliyatining o'rnini¹

1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, keltirilgan ikkita ko'rsatkich bo'yicha AQSH birinchilikni egallamoqda. Sug'urtaning ahamiyati aholi jon boshiga sug'urta mukofotining hajmi bilan belgilanadi. So'nggi yillarda sayyoramizning har bir aholisi uchun taxminan 650-700 AQSH dollari miqdorida sug'urta mukofoti to'g'ri kelmoqda.

O'zbekistonda sug'urta faoliyatining YAIMdagi ulushi dinamikasi so'nggi yillarda 0,32 foizdan 0,7 foizgacha tashkil etmoqda.




2-rasm. O'zbekistonda sug'urta faoliyatining YAIMdagi ulushi²

O'zbekistonda jami sug'urta mukofotining YAIMdagi ulushi va aholi jon boshiga sug'urta mukofoti bilan bog'liq hozirgi holat, asosan, sug'urta savodxonligining etarli emasligi, yuridik va jismoniy shaxslarning risklarni boshqarish tizimining elementi sifatida sug'urtaga nisbatan ishonchsizligi bilan bog'liq.

1 International Association of Insurance Supervisors (IAIS) IAIS Global Insurance Market Report 2023 highlights key risks and trends facing the global insurance sector. <https://www.iaisweb.org/>

2 Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги маълумотларига асосланиб, муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.



3-rasm. O'zbekistonda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'urta mukofoti summasi³

Sug'urta bozorida sug'urtaga yangi innovatsion sug'urta mahsulotlarini kiritish va raqamlashtirish sug'urta bozorining innovatsion rivojlanish yo'nalishlarini belgilab bermoqda.

Sug'urta tashkilotlarining innovatsion faoliyatini modellashtirishimiz uchun hududlardagi sug'urta mukofotlari ko'rsatkichlaridan foydalanib, SEM modeli asosida ularning o'zgarishlari ekonometrik tahlilini amalga oshiramiz.

SEM modeli tenglamalar tizimi ko'rinishida bo'lib, tanlab olingan ko'rsatkich birinchi tenglamada omil belgi sifatida ishtirok etsa, ikkinchi tenglamada natijaviy belgi sifatida qatnashadi.

$$\begin{cases} \ln y_1 = \beta_0 + \beta_1 \sum_{i=1}^n \ln \hat{y}_{1ti} + \beta_2 \sum_{i=1}^n \ln \hat{y}_{2ti} + \varepsilon \\ \ln y_2 = \alpha_0 + \alpha_1 \sum_{i=1}^n \ln \hat{y}_{2ti} + \alpha_2 \sum_{i=1}^n x_{ti} \end{cases}$$

Gipotezamiz bo'yicha sug'urta mukofotlari o'zgarishiga (SM) (mln. so'mda) aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot o'sishi (%) (AJBYHM) hamda aholi jon boshiga umumiy yilliy daromadlar (ming so'm) (AJBUD) ta'sir etadi. Sug'urta mukofotlari o'sishi esa o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi (QQS va aksizsiz) (IMH) (mln. so'mda) ortishiga olib kelishi kerak.

1-jadval. O'zbekistonda hududlar bo'yicha sug'urta bozori ko'rsatkichlari holati⁴

	Hududlar	SM	IMH	AJBYHM	AJBUD
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	135843	240971,9	106,0	11391,6
2	Andijon	108373	4806697	102,7	12862,9
3	Buxoro	100871	690911,6	104,8	17847,1
4	Jizzax	47748	175605,9	104,8	13229,7
5	Kashkadary	114547	896730,5	105,6	12299,8
6	Navoiy	67963	813575	105,2	24156,2
7	Namangan	81805	379235,3	106,8	11329,1
8	Samarqand	98412	2033448,7	106,7	12874,4
9	Surxondary	63896	227587,9	105,5	11884,7
10	Sirdary	49671	581499,9	108,1	12675,3
11	Toshkent	124694	1464908,4	112,0	16331,7
12	Farg'ona	120788	610416,6	105,9	10929,8
13	Xorazm	72096	168196	107,6	15484,5
14	Toshkent. sh	1809834	14288829,2	106,9	30232,0

3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va soliq vazirligi ma'lumotlariga asoslanib, muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va soliq vazirligi ma'lumotlariga asoslanib, muallif tomonidan ishlab chiqilgan.


1-jadvalga ko'ra, 2021-yilda hududlar kesimida sug'urta mukofotlari o'rtacha 214038,64 mln. so'mni tashkil etmoqda. Lekin 1-jadval ma'lumotlari bo'yicha respublikadagi barcha 13 ta hududning 2021-yillik ko'rsatkichlari o'rtachadan past. Buni Toshkent shahrining holati bo'yicha izohlash mumkin. Hududlar kesimida sug'urta mukofotlari notekis taqsimlangan. Jizzax viloyatida respublika bo'yicha eng kam sug'urta mukofoti 47748 mln. so'mga ega. Bizning fikrimizcha, sug'urta tashkilotlarining innovasion faoliyatini takomillashtirishimiz uchun, avvalo, barcha hududlarda sug'urta madaniyatini shakllantirishimiz kerak.

2-jadval⁵. Tasviriy statistika ko'rsatkichlari.

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
SM	14	214038.64	460165.47	47748	1809834
IMH	14	1955615.3	3751725.3	168196	14288829
AJBYHMO	14	106.328	2.11	102.696	111.953
HBAJBUD	14	15252.056	5566.086	10929.8	30231.968

Bu holatni innovasion mahsulotlar hajmi bo'yicha ham ko'rishimiz mumkin. 2021-yilda Respublika bo'yicha innovasion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi (QQS va aksizsiz) eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahriga (14288829,2 mln. so'mda) to'g'ri kelib, ushbu indikator Jizzax viloyatida eng kam ma'lumotlar oqimini bermoqda, innovasion tovar va xizmatlar hajmi (egri soliqlarsiz) mamlakat bo'yicha eng kam indeksni ko'rsatmoqda va indikatorlar bo'yicha ortda qolmoqda. Bundan sug'urta tashkilotlarining sug'urta mukofotlari va ularning innovasion faoliyatga yo'naltirilganligi o'rtasida bog'lanish borligiga shubha qilmasak bo'ladi.

Sug'urta mukofotlari innovasion faoliyatni rivojlantirishi mumkinligiga guvoh bo'ldik, sug'urta mukofotlari ortishiga ta'sir qiluvchi omil belgilar, bizning fikrimizcha, hududlarda umumiy daromad hajmi va yalpi hududiy mahsulot o'sishidir. Bundan quyidagi SEM bog'lanish shakllanadi.



7-rasm. Sug'urta tashkilotlari innovasion faoliyatini modellashtirish

Ilmiy tadqiqotda n-ko'rsatkichli va chiziqli ko'rinishda regression modellarni qo'llaymiz. Buning uchun jarayonda regression modellarni hosil qilishda eng kichik kvadratlar usulidan foydalandik.

$$F = \sum (Y - Y_x)^2 \rightarrow \min_{\text{yoki}} F = \sum (Y - \beta_0 - \beta_1 x - \beta_2 x^2 - \dots - \beta_k x^k)^2 \rightarrow \min$$

bundan xususiy hosila olsak, quyidagi ko'rishdagi tenglamalar sistemasi hosil bo'ladi.

Quyidagi regressiya tenglamasi shakllantiriladi:

$$Y = \beta_0 * x_1^{\beta_1} * x_2^{\beta_2} * \dots * x_n^{\beta_n} \quad (1)$$

Bu yerda: Y- bog'liq o'zgaruvchilar; $x_1, x_2, \dots, x_n$ - ta'sir etuvchi mustaqil o'zgaruvchilar.

(1) modelda natural logarifm orqali almashtirib olsak, u holda quyidagi ko'rinishga ega bo'lamiz:

$$\ln(y) = \ln(\beta_0) + \beta_1 \ln(x_1) + \beta_2 \ln(x_2) + \dots + \beta_n \ln(x_n) \quad (2)$$

5 Khalikulova, Gulzada, et al. "Econometric Analysis and Forecasting of Uzbekistan's Insurance Market Development in the Era of Digital Transformation." *Proceedings of the 8th International Conference on Future Networks & Distributed Systems*. 2024.

(2) modelda $\ln(y) = y'$, $\ln(\beta_0) = \beta_0'$, $\ln(x_1) = x_1'$, $\ln(x_2) = x_2'$, ..., $\ln(x_n) = x_n'$ belgilashlarni amalga oshirsak, u holda quyidagi ko'rinishga ega bo'lamiz:

$$y' = \beta_0' + \beta_1' x_1' + \beta_2' x_2' + \dots + \beta_n' x_n' \quad (3)$$

(3) modeldagi noma'lum $\hat{\beta}_0, \hat{\beta}_1, \dots, \hat{\beta}_n$ parametrlarni topish uchun quyidagi normal tenglamalar tizimi tuziladi.

[illegible]

Ushbu (4) normal tenglamalar tizimini matematikaning bir nechta usuli orqali analitik yechilsa, u holda noma'lum $\hat{\beta}_0, \hat{\beta}_1, \dots, \hat{\beta}_n$ parametrlarning qiymatlari topiladi.

Har qanday ekonometrik modellashtirishda asosiy maqsad beta koeffitsiyenti aniqlash, buning uchun beta koeffitsiyent BLUE (best linear unbiased estimator) bo'lishi kerak, ya'ni F test, t test statistik ahamiyatli bo'lishidan tashqari, model Gaus Markov talablariga ayniqsa, geteroskadalilik va avtokorrelyatsiya talablariga mos keladi.

Model qoldiqlari modelning mos qiymatlari bilan korrelyatsion bog'lanmasligi, qoldiqlar laglarida ham tizimli bog'lanish mavjud bo'lmamasligi kerak. Geteroskadtlikdan umumiy holda qutulish uchun model ma'lumotlari bir xil holga keltirildi, ya'ni logarifmland.

Rasmiy ma'lumotlar muallif tomonidan jamlanib, ekonometrik modellash tirishda keng qo'llaniladigan STATA dasturidan foydalanildi.

3-jadval. Yalpi hududiy mahsulotning sug'urta mukofotlariga o'zgarishini ekonometrik modelashtirish⁶

Lnsm	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
lnajbhm	0.2832	0.0839	3.38	0.013	0.15	0.38	***
Constant	-10.961	3.911	-2.83	0.021	-13.497	-8.69	***
Mean dependent		11.586		SD dependent var		0.879	
R-squared		0.042		Number of obs		14	
F-test		70.142		Prob > F		0	
Akaike crit. (AIC)		38.923		Bayesian crit. (BIC)		40.201	

*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$

3-jadvalda olingan natija tahlili shuni ko'rsatadiki, regression modelda determinasiya koeffitsienti $R^2 = 0,04$; $F_{hisob} = 70.142$; $\alpha = 0,05$ bo'lganda, $F_{jad} = 2,17$ ga teng. Styudent mezon bo'yicha har bir koeffitsientni taqqoslaganimizda, jadval qiymatidan hisobiy qiymatlari katta ekanligi aniqlandi.

Determinasiya koeffitsientining oraliq qiymati 0 dan 1 gacha qiymatlarni qabul qiladi. Koeffitsient qiymati 1 ga qanchalik yaqin bo'lsa, omil belgining bog'liq o'zgaruvchiga kuchli ta'siri ifodalandi. Mazkur holatda determinasiya koeffitsientining 0,04 qiymatga teng bo'lishi sug'urta mukofotlarining yalpi hududiy mahsulotga 4 foiz ta'sir etishi aniqlandi.

Modellarni turli miqdordagi omillar bilan taqqoslash imkoniyati bo'lishi va ushbu miqdordagi omillar R^2 statistikaga ta'sir etmasligi uchun, odatda, tuzatilgan determinatsiya koeffitsiyentidan foydalaniladi, ya'ni:

$$R_{\text{техис}}^2 = 1 - \frac{s^2}{s_y^2} \quad (5)$$

Modelning iqtisodiy va statistik ahamiyatga ega bo'lishi F test bo'yicha amalga oshiriladi. Bosh gipotezani qabul qilish uchun haqiqiy qiymatning jadval qiymatidan katta bo'lishi, yoki ehtimollik darajasining 0.05dan kichik bo'lishi yetarlidir.

6 Khalikulova, Gulzada, et al. "Strategies for Enhancing Innovation in the Insurance Industry Through Digital Transformation." *Proceedings of the 8th International Conference on Future Networks & Distributed Systems*. 2024.

$$F_{\text{хисоб}} = \frac{R^2}{1-R^2} \cdot \frac{n-m-1}{m}, \quad (6)$$

Bu yerda: R^2 - determinatsiya koeffitsiyenti;

n - kuzatuvlar soni;


m - omillar soni.

F-test haqiqiy qiymati $F_{\text{hisob}}=70.142$ ga teng. Ahamiyatlik darajasi $\alpha = 0,05$ va ozodlik darajalar $k_1=2$ va $k_2=14-2-1=11$ dan kelib chiqib, F-mezonning jadval qiymati $F_{\text{jadval}}=2.17$ ga teng. Bosh gipoteza rad etilib, alternativ gipoteza qabul qilinadi va model iqtisodiy hamda statistik ahamiyatga ega deb qaror qabul qilinadi.

Modelning koeffitsientlari ishonchligi t-test orqali tekshiriladi. Bunda bosh gipoteza model koeffitsientlarining statistik ahamiyatga ega bo'lmavligini, alternativ gipoteza koeffitsientlar statistik ma'noga ega bo'lishini ifodalaydi.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinadiki, koeffitsientlar bo'yicha ehtimollik qiymatlari 0.05 dan kichik, bosh gipotezani rad etish uchun tegishli asos mavjud. Modelning parametrlari ishonchli va tegishli xulosalar va takliflar shakllantirish mumkin.

Geteroskadalilik uchun bir qator testlar mavjud bo'lib, Brosh Pagan testi asosiy bo'lib, ehtimollik darajasi 0.05 dan kichik bo'lsa, bosh gipoteza qabul qilinib, alternativ gipoteza rad qilinadi. Model qoldiqlari mos qiymatlar bilan bog'lanmaganligi ifodalanadi.



8-rasm. Model qoldiqlarining taqsimoti

Brosh Pagan testida 0.45 bo'lib, ehtimollik 0.50 ga teng. Modelda gomogonlik xususiyati mavjud, beta koeffitsient BLUE ekan.

Model bo'yicha natijaviy omilning qoldiqlarida avtokorrelyatsiyani tekshirish uchun Darbin-Uotson (DW) testi mavjud:

$$\begin{aligned} DW &= \frac{\sum_{t=2}^T (e_t - e_{t-1})^2}{\sum_{t=1}^T e_t^2} = \frac{\sum_{t=2}^T e_t^2 + \sum_{t=2}^T e_{t-1}^2 - 2 \sum_{t=2}^T e_t e_{t-1}}{\sum_{t=1}^T e_t^2} = \\ &= 2 - 2 \frac{\sum_{t=2}^T e_t e_{t-1}}{\sum_{t=1}^T e_t^2} \approx 2(1 - \rho_1) \end{aligned} \quad (7)$$

Bu yerda, ρ_1 – birinchi tartibdagi korrelyatsiya koeffitsiyenti.

Natijaviy omil qoldiqlari qatorida avtokorrelyatsiya mavjud bo'lmasa, $DW = 2$, musbat avtokorrelyatsiyada DW nolga, manfiy avtokorrelyatsiyada esa 4 ga intiladi.

$$\begin{cases} \rho_1 = 0 \rightarrow DW = 2; \\ \rho_1 = 1 \rightarrow DW = 0; \\ \rho_1 = -1 \rightarrow DW = 4. \end{cases}$$

Stata dasturi orqali Durbin Uotsin testi aniqlandi va avtokorrelyatsiya mavjud emasligi tekshirildi.

Model Gaus Markovning barcha oltita sharti bo'yicha tekshirildi va har bir shart ishonchli va ahamiyatli ekanligi tasdiqlandi.

Shuning uchun quyidagi regression modelni adekvat deb tanlab oldik:

$$\ln sm = -10.96 + 0.28 \ln ajbhm; \quad (8)$$

(3.9) (0.08)

Model koeffitsienti BLUE bo'lib, F test, t test va Gaus Markovning barcha shartlari bo'yicha ham statistik ahamiyatga ega ekan. Akayke va Shvars mezonlari esa modelning optimal ekanligini ifodalaydi. Beta koeffitsient 0,28 ga teng. Ya'ni aholi jon boshiga hududiy mahsulotning bir foizga ortishi hududlarda sug'urta mukofotlarining 0.28 % ortishiga ta'sir qiladi.

4-jadval Aholining umumiy daromadlari sug'urta mukofotlariga o'zgarishini ekonometrik modellashtirish

Lnsn	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
lnajbud	1.757	0.671	2.62	0.023	0.294	3.22	**
Constant	-5.253	2.439	-2.82	0.03	-6.283	-4.776	**
Mean dependent var		11.586	SD dependent var		0.879		
R-squared		0.363	Number of obs		14		
F-test		6.846	Prob > F		0.023		
Akaike crit. (AIC)		32.768	Bayesian crit. (BIC)		34.046		

*** p<.01, ** p<.05, * p<.1

4-jadvalda olingan natija tahlili shuni ko'rsatadiki, regression modelda determinasiya koeffitsienti $R^2 = 0,857$; Fhisob= 6.846; $\alpha = 0,05$ bo'lganda, Fjad=2,17 ga teng. Student mezon bo'yicha har bir koeffitsientni taqqoslaganimizda, jadval qiymatidan hisobiy qiymatlari katta ekanligi aniqlandi.

Modelning F test, t test, determinasiya koeffitsienti bo'yicha statistik ahamiyatli ekanligini aniqladik. Endi Gaus Markov shartlari orqali tekshiramiz.

Breusch-Pagan / Cook-Weisberg test for heteroscedasticity


Ho: Constant variance

Variables: fitted values of lnyuk

chi2(1) = 0.63

Prob > chi2 = 0.4284

STATA dasturidan foydalanib, Breusch Pagan testi bilan geteroskadalilik tekshirilganda, chi2 (X kvadrat) qiymati 0.63 ga tengligi, ehtimollik darajasi 0.42 ga tengligi aniqlandi. Bunday holda bosh gipotezani qabul qilib, alternativ gipotezani rad etamiz. Modelda geteroskadalilik mavjud emas, model qoldiqlari erkin o'zgaruvchidir.



9-rasm. Qoldiqlar avtokorrelyatsiyasi

Mazkur misolda hisoblangan DW mezonining qiymati 1.98 ga teng. Bu esa natijaviy omil qoldiqlaridan avtokorrelyatsiya mavjud emasligini ko'rsatadi.

$$\text{Insm} = -5.25 + 1.75\text{Inajbud}; \quad (9)$$

(0.67) (2.44)

Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning bir foizga ortishi sug'urta mukofotlarining 1.75 % ko'payishiga olib keladi.

5-jadval. Sug'urta mukofotlarining innovasion mahsulotlar ishlab chiqarishga o'zgarishini ekonometrik modellashtirish

Lnimh	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
Lnsn	1.076	0.282	3.81	0.002	0.461	1.691	***
Constant	10.074	3.279	0.033	0.009	-6.07	8.218	**
Mean dependent var	13.544		SD dependent var	1.278			
R-squared	0.548		Number of obs	14			
F-test	14.543		Prob > F	0.002			
Akaike crit. (AIC)	38.457		Bayesian crit. (BIC)	39.735			

*** p<.01, ** p<.05, * p<.1

5-jadvalda olingan natija tahlili shuni ko'rsatadiki, regression modelda determinasiya koeffitsienti $R^2 = 0,55$; $F_{hisob} = 38.45$; $\alpha = 0,05$ bo'lganda, $F_{jad} = 2,17$ ga teng. Student mezonini bo'yicha har bir koeffitsientni taqqoslaganimizda, jadval qiymatidan hisobiy qiymatlari katta ekanligi aniqlandi.


Geteroskadalilik uchun bir qator testlar mavjud bo'lib, Brosh Pagan testi asosiy bo'lib, ehtimollik darajasi 0.05 dan kichik bo'lsa, bosh gipoteza qabul qilinib, alternativ gipoteza rad qilinadi. Model qoldiqlari mos qiymatlar bilan bog'lanmaganligi ifodalanadi. Brosh Pagan testida 1.65 bo'lib, ehtimollik 0.95 ga teng. Modelda gomogonlik xususiyati mavjud, beta koeffitsient BLUE ekan.

DW mezonining qiymati 1.88 ga teng. Bu esa natijaviy omil qoldiqlaridan avtokorrelyatsiya mavjud emasligini ko'rsatadi.

$$\text{Inimh} = 10.07 + 1.07\text{Insm}; \quad (9)$$


(3.28) (0.28)

Sug'urta mukofotlari 1 % ortishi innovasion mahsulotlarni ishlab chiqarishning 1,07 % o'sishiga xizmat qiladi.



Uchta koeffitsient ham BLUE bo'lib, F test, t test va Gaus Markovning barcha shartlari bo'yicha ham statistik ahamiyatga ega ekan. Akayke va Shvars mezonlari esa modellarning optimal ekanligini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasida sug'urta mukofotlari, to'lovlari va tashkilotlar sonining prognoz qiymatlarini aniqlash uchun Double Exponential Smoothing metodidan foydalanildi.



10-rasm. O'zbekiston Respublikasida sug'urta to'lovlari, mukofotlari va tashkilotlar sonining prognoz holati

Silliqlash metodlaridan biri bo'lgan Double Exponential Smoothing prognozlash metodida ko'rsatkichning o'zgarish darajasi, trend holati va mavsumiylik inobatga olinadi. Bu metod quyidagi ko'rinishga ega: bunda vaqt bo'yicha o'zgarish darajasini ifodalaydi hamda o'zgarish darajasi belgilanadi, qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlari oralig'ida bo'ladi. trend holatini ifodalab, trend darajasi aniqlanadi, mavsumiyligini ifodalaydi va mavsumiylik darajasi bilan aniqlanadi.

Prognoz xatoligi MAPE, MAD, MSD qiymatlari bilan tekshiriladi. Kichik qiymatlar kam xatolikni ifodalashi uchun ham bir necha variant prognozlaridan aynan va unga mos ravishda 0.3 va 0.8 tanlandi.

Prognoz qiymatlarining ishonchli bo'lishi natijalardan sug'urta dasturlari, maqsadli rejalarida foydalanish uchun hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

6-jadval. O'zbekiston Respublikasida sug'urta to'lovlari, mukofotlari va tashkilotlar sonining 2024-2028 yillardagi prognoz qiymatlari⁷

№	Sug'urta mukofotlari, mlrd. so'm	Sug'urta to'lovlari, mlrd. so'm	Sug'urta tashkilotlari soni
1.	6649,7	2620,59	49
2.	7734,2	3093,75	52
3.	8818,7	3566,91	55
4.	9903,2	4040,08	58
5.	10987,6	4513,24	62

2028-yilga borib, sug'urta mukofotlari 10987,6 mlrd. so'mni tashkil etishi kutilmoqda. Sug'urta mukofotlarining ortishi sug'urta tashkilotlarining rivojlanishi va barqarorligini ta'minlaydi. Sug'urta to'lovlari 4 516,2 mlrd. so'mni tashkil etib, sug'urta kompaniyalari soni 62 taga etishi prognoz qilindi. Sug'urta bozorining prognozi O'zbekistonda sug'urta bozorining rivojlanishini ko'rsatmoqda, demak, sug'urta tashkilotlarining innovatsion faoliyatini takomillashtirish davr talabidir⁸.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sug'urta tashkilotlari innovatsion faoliyatini samaradorlini oshirish yo'nalishlari bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Sug'urta tashkilotlari uchun innovatsion tipologiya ishlab chiqish zarur, chunki ular faqatgina sug'urtalanuvchilarning mulkiy manfaatlarini himoya qilib qolmasdan, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradi va daromad olishi kerak. Shuning uchun tashkilotlar portfelida an'anaviy mahsulotlar bilan birga kiber-sug'urta, parametrik agro-sug'urta, "yashil" sug'urta va mikrosug'urta kabi innovatsion mahsulotlar ham bo'lishi shart, bu esa bozorda raqobatbardoshlikni oshirish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va foyda barqarorligini ta'minlaydi.

Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy resurslar harakatini innovatsion tadbirkorlik modeli asosida yo'naltirish talab etiladi, ya'ni ular an'anaviy depozit va obligatsiyalar bilan cheklanib qolmasdan, InsurTech startaplari investitsiya kiritishi, raqamli platformalar orqali yangi xizmat turlarini joriy qilishi va blokcheyn texnologiyasi asosida "smart contract" orqali sug'urta xizmatlarini amalga oshirishi lozim. Bu yo'nalish resurslarni samarali boshqarish orqali rivojlanish indikatorlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va bozordagi mavqeni mustahkamlaydi.

Sug'urta tashkilotlari mijozlar ehtiyojini oldindan prognoz qilish tizimini yo'lga qo'yishi kerak, buning uchun big data tahlili, raqamli modellash va prognozlash usullaridan keng foydalanish zarur. Masalan, avtosug'urtada telematik ma'lumotlar, agro-sug'urtada meteoma'lumotlar, tibbiy sug'urtada esa sog'liqni saqlash indikatorlari asosida mijoz ehtiyojlari oldindan aniqlansa, shaxsiylashtirilgan mahsulotlar taklif etish imkoniyati oshadi, natijada mijozlar bazasi kengayadi, ishonch kuchayadi va kompaniyaning daromadlari ko'payadi.

Har bir sug'urta tashkiloti o'z faoliyatini innovatsion tadbirkorlik modeli asosida strategik reja va konsepsiya shaklida ifoda etishi zarur, bu hujjatda bozor segmentatsiyasi, yangi mahsulotlar portfeli, raqamli transformatsiya bosqichlari, kadrlar tayyorlash dasturi va moliyaviy barqarorlik indikatorlari aniq belgilab qo'yilishi kerak. Bu jarayon tashkilotning rivojlanish trayektoriyasini uzoq muddatga belgilaydi, iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydi va milliy iqtisodiyotdagi rolini kuchaytiradi.

Sug'urta tashkilotlari mijozlarga yo'naltirilgan innovatsion xizmatlar ekotizimini yaratishi zarur, masalan mobil ilovalar orqali onlayn polis rasmiylashtirish, QR-kod orqali da'volarni tezkor qayd etish, telemeditsina xizmatlari bilan bog'liq tibbiy sug'urta paketlari, hamkor bank va fintexlar orqali integratsiya qilingan "embedded insurance" xizmatlari. Bu turdagi innovatsiyalar mijoz uchun qulaylik yaratib, ularning qoniqishini oshiradi, sug'urta bozorida raqobat ustunligini ta'minlaydi va tashkilotning mavqeini hamda daromadini kuchaytiradi.

Yuqoridagi takliflar sug'urta tashkilotlari faoliyatida innovatsion tadbirkorlik modelini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ular orqali kompaniyalar faqatgina mijoz manfaatlarini himoya qilish bilan cheklanib qolmasdan, balki o'z daromad bazasini kengaytiradi, bozorda raqobatbardoshligini mustahkamlaydi va milliy iqtisodiyot rivojiga hissa qo'shadi.

⁷ Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

⁸ Khalikulova, Gulzada Tadjimuratovna. "INNOVATIONS IN INSURANCE: MAIN WORLD TRENDS." *The American Journal of Management and Economics Innovations* 6.01 (2024): 105-111.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сонли «Ўзбекистон – 2030» стратегияси тўғрисидаги Фармони.
2. Scawthom C. Asian Catastrophe Insurance. / C.Scawthom, K.Kobayashi. 2008. April. – 165 p.
3. Benjamin Friedman. The Moral Consequences of Economic Growth, 2005.
4. John Richard Hicks. Collected Essays in Economic Theory, 1981-83,
5. Н.Н.Любимова; под ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – М: Гелиос АРВ, 2002. ISBN 5-85438-052-8. Arthur Cecil Pigou. // [Brockhaus Enzyklopädie](#) (нем.). / Hrsg.: [Bibliographisches Institut & F. A. Brockhaus](#), [Wissen Media Verlag](#).
6. Ахвледиани Ю.Т. Некоторые аспекты страхования предпринимательских рисков в России. // Страховое дело, 2006. № 4. С. 38.
7. Шеннаев, Хужаёр. “Годы независимости—этапы развития страховой деятельности в Узбекистане.” Экономика и инновационные технологии 5 (2021): 321-335.
8. Khalikulova, Gulzada, et al. “Econometric Analysis and Forecasting of Uzbekistan's Insurance Market Development in the Era of Digital Transformation.” Proceedings of the 8th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. 2024.
9. Khalikulova, Gulzada, et al. “Strategies for Enhancing Innovation in the Insurance Industry Through Digital Transformation.” Proceedings of the 8th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. 2024.
10. Khalikulova, Gulzada Tadjimuratovna. “INNOVATIONS IN INSURANCE: MAIN WORLD TRENDS.” The American Journal of Management and Economics Innovations 6.01 (2024): 105-111.
11. [International Association of Insurance Supervisors \(IAIS\) IAIS Global Insurance Market Report 2023 highlights key risks and trends facing the global insurance sector.](#) <https://www.iaisweb.org/>
12. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги маълумотлари.



**TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI

YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

Ilmiy elektron jurnal

(MAXSUS SON)

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

23-24

OCTOBER
2030

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

23-24
OCTOBER
2025

3RD CONFERENCE:
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE:
A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

UZBEKISTAN
STRATEGY

23-24 OCTOBER

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE
AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND
BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT
OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:
BANKING AND
FINANCIAL SYSTEM AND
DIRECTIONS FOR DEVELOPING
THE PRIVATE SECTOR

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ
«УЗБЕКИСТАН – 2030»

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

strategy2025.tsue.uz

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH
SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY
O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

2030

<https://strategy2025.tsue.uz/>

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS ФОРУМ UZBEKISTAN
STRATEGY



ISSN: 2992-8982

Elektron pochta: sq1141983@gmail.com

Telefon: +998 93 124 57 11

Sayt: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Telegram: https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz

ISBN 978-9910-8110-8-1



9 789910 811081

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030
UZBEKISTAN
STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI
VA XUSUSIY SEKTORNI
RIVOJLANTIRISH
YO'NALISHLARI